



UDK: 37.014.5:37.091.3

Gulchexra A. ABDULLAEVA,
Dotsent, PhD, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: gul.1986.abdullajonovna@gmail.com

Maxbuba A. XAMIYEVA,
Stajyor-o‘qituvchi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: mahbubahamiyeva@mail.com

KUAF Andijon filiali dotsenti X.Xaydarova taqrizi asosida

MODERN TRENDS IN EDUCATION AND THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE APPROACHES

Annotation

This article scientifically and theoretically analyzes the main trends observed in the modern education system, including digital technologies, artificial intelligence, hybrid education, the STEAM approach, and the pedagogical significance of hard skills and soft skills competencies. During the research, the processes of modern educational transformation, innovative pedagogical activity, didactic approaches, and the influence of the digital environment on youth thinking were studied. In addition, the development trends of modern education were highlighted based on the educational reforms being implemented in Uzbekistan and international experiences. According to the research findings, it was substantiated that under the conditions of rapidly developing technologies, the development of humanism, moral education, and communicative competencies should become a priority task of education.

Keywords: educational trend, innovative education, artificial intelligence, ChatGPT, hybrid education, STEAM, hard skills, soft skills, didactics, pedagogical technology, digital transformation.

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕНДЫ В ОБРАЗОВАНИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются основные тенденции, наблюдаемые в современной системе образования, включая цифровые технологии, искусственный интеллект, гибридное обучение, STEAM-подход, а также педагогическое значение компетенций “hard skills и soft skills”. В ходе исследования были изучены процессы трансформации современного образования, инновационная педагогическая деятельность, дидактические подходы и влияние цифровой среды на мышление молодежи. Кроме того, на основе образовательных реформ, реализуемых в Узбекистане, и международного опыта были освещены тенденции развития современного образования. По результатам исследования обосновано, что в условиях стремительного развития технологий приоритетной задачей образования должно стать развитие гуманизма, воспитания и коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: образовательный тренд, инновационное образование, искусственный интеллект, ChatGPT, гибридное обучение, STEAM, hard skills, soft skills, дидактика, педагогическая технология, цифровая трансформация.

TA'LIMDA ZAMONAVIY TRENDLAR VA INNOVATSION YONDASHUV-LARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kuzatilayotgan asosiy trendlar, jumladan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, gibrid ta'lim, STEAM yondashuvi, hard skills va soft skills kompetensiyalarining pedagogik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zamonaviy ta'lim transformatsiyasi jarayonlari, innovatsion pedagog faoliyati, didaktik yondashuvlar hamda raqamli muhitning yoshlar tafakkuriga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari va xalqaro tajribalar asosida zamonaviy ta'limning rivojlanish tendensiyalari yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda insonparvarlik, tarbiya va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ta'limning ustuvor vazifasiga aylanishi zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: ta'lim trendi, innovatsion ta'lim, sun'iy intellekt, ChatGPT, gibrid ta'lim, STEAM, hard skills, soft skills, didaktika, pedagogik texnologiya, raqamli transformatsiya.

Kirish. XXI asrga kelib dunyo miqyosida axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanish va inson kapitalining shakllanishi bevosita ta'lim sifati bilan bog'liq hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari qo'yilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ta'lim sohasida “raqamli ta'lim”, “gibrid ta'lim”, “STEAM”, “sun'iy intellekt”, “gamifikatsiya”, “soft skills”, “hard skills” kabi tushunchalar keng qo'llanila boshladi. Ayniqsa, ChatGPT kabi generativ AI tizimlarining paydo bo'lishi ta'limning mazmuni va metodologiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda o'quvchilar faqat ma'lumotni yodlovchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, tanqidiy fikrlovchi va kreativ yondasha oladigan shaxs sifatida shakllanishi talab qilinmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, zamonaviy ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda ijtimoiy

kompetensiyalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, kommunikativ madaniyat, stressni boshqarish, moslashuvchanlik va jamoada ishlash kabi soft skills kompetensiyalar bugungi mehnat bozorining asosiy talablariga aylanmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim salbiy ta'sirlari ham mavjud. Jumladan, axborot manipulyatsiyasi, yoshlarning virtual muhitga haddan tashqari bog'lanib qolishi, mustaqil fikrlashning pasayishi va media bosim kabi holatlar pedagogik hamda psixologik muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli bugungi ta'lim tizimida texnologiyalar va insonparvarlik uyg'unligini ta'minlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda gibril va gamifikatsion darslar bilan bir qatorda sun'iy intellekt davri ham jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida avvalgidek faqat hard skills ko'nikmalariga emas, balki soft skills ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hard skills - bu o'rganish orqali egallanadigan texnik va kasbiy bilim hamda ko'nikmalar hisoblanadi. Jumladan, murakkab dasturlar bilan ishlash, ko'p tillilik, chizmalar yaratish, raqamli texnologiyalar va gologramma tizimlaridan foydalanish kabi amaliy bilimlar hard skills tarkibiga kiradi. Soft skills esa insonning o'zini tutishi, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq kompetensiyalaridir. Ya'ni, unga faol tinglash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, samarali muloqot qilish, vaqtini boshqarish, moslashuvchanlik, stressni boshqarish hamda muammoli vaziyatlarni tinch va oqilona hal qilish kabi ko'nikmalar kiradi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilimli, balki kommunikativ, kreativ va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy ta'lim tizimida kuzatilayotgan innovatsion trendlarni o'rganishga qaratilgan pedagogik tahlil, tarixiylik, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish hamda ilmiy-nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy va shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslandi. Pedagogik tahlil orqali sun'iy intellekt, gibril va gamifikatsion darslar, STEAM yondashuvi hamda hard skills va soft skills kompetensiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganildi. Tarixiylik metodi asosida an'anaviy didaktikadan raqamli pedagogikaga o'tish jarayonlari tahlil qilindi. Qiyosiy-taqqoslash metodidan foydalanib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tajribalari bilan solishtirildi [3].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi ta'lim tizimida bir nechta asosiy trendlar shakllanganligi kuzatildi.

Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limning mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Bunday generativ AI platformalari yordamida individual o'quv rejalari yaratilmoqda, avtomatlashtirilgan baholash mavjud, interaktiv o'quv materiallari tayyorlash hamda masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaydi. Natijada o'quv jarayonining moslashuvchanligi ortib, ta'limning individuallashtirilishi kuchaydi.

Ikkinchidan, gibril va masofaviy ta'lim tizimlari keng rivojlanmoqda. Elektron kundalik, HEMIS, virtual sinf platformalari va LMS tizimlari ta'limning raqamli modelini shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim oluvchilarning vaqt chegaralarini qisqartirib, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy ta'limda hard skills va soft skills uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy

pedagogik yondashuvlarda o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, jamoada ishlay oladigan, kreativ yondashuvchi va erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. "4K"(kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsia) kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimni, balki amaliy va ijtimoiy faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, gibril va gamifikatsion darslar hamda sun'iy intellekt asosidagi platformalar 4K ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi kerakligi aniqlandi.

To'rtinchidan, innovatsion pedagog faoliyatida didaktik mahoratning ahamiyati ortmoqda. Zamonaviy o'quvchi uzoq va zerikarli ma'ruzalarni qabul qilmaydi. Shu sababli: gamifikatsiya; muammoli vaziyatlar; interaktiv metodlar; refleksiv savollar; kreativ topshiriqlar samarali pedagogik vositalarga aylanmoqda.

Beshinchidan, PR texnologiyalar va media muhiti ta'lim jarayonida "aktual"lashdi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'lim muassasalari o'z faoliyatini targ'ib qilib, xatto manipulyativ axborot, yolg'on reklama va salbiy media bosimining kuchayishi xolatlari ham kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar. Demak, zamonaviy ta'lim tizimida texnologik yondashuvlarning ustunligi ortib bormoqda. Biroq pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, texnologiyalar ta'limning asosiy maqsadini o'zgartirib yubormasligi kerak. Chunki ta'limning markazida avvalo inson, uning tafakkuri va ma'naviy rivoji turadi. Bugungi kunda ayrim hollarda innovatsiya tushunchasi faqat texnologiya bilan bog'lanmoqda. Aslida esa innovatsiya pedagogik fikrlashdagi yangilanishni ham anglatadi. Didaktik nuqtai nazardan qaralganda, zamonaviy o'quvchini passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol subyektlar sifatida shakllantirish zarur. Yana bir muhim masala - tarbiya muammosi alohida namoyon bo'ldi. Bugungi raqamli davrda texnologiyalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, insoniylik, empatiya va ma'naviy qadriyatlarini saqlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Chunki sun'iy intellekt ma'lumot bera olar, insoniy mehr va tarbiyaviy ta'sirni bera olmaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'limda soft skills kompetensiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Konfliktlarni tinch hal qilish, faol tinglash, murosa qilish va stressni boshqarish kabi ko'nikmalar pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi ta'lim tizimida faqat bilimli emas, balki ma'naviy yetuk, kommunikativ va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimi raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalar ta'sirida yangi rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Sun'iy intellekt, gibril va ta'lim, STEAM yondashuvi, gamifikatsiya va raqamli pedagogika ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, ta'limning asosiy maqsadi insonni tarbiyalash bo'lib qoladi. Shu sababli zamonaviy ta'limda:

- hard skills va soft skills uyg'unligini ta'minlash;
- innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish;
- media savodxonlikni kuchaytirish;
- tarbiya va insonparvarlikni ustuvorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajak ta'limi texnologiya va insoniylik uyg'unligiga asoslangan holda rivojlanishi zarur. Faqat shundagina jamiyat uchun bilimli, kreativ, ma'naviy yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha yuksaltirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
3. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2021.
4. Абдуллаева Г.А. Педагогик оғиш ва уни коррекциялаш // Academic research in educational sciences. 2023. №NUU conference URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-o-ish-va-uni-korreksiyalash> (дата обращения: 24.02.2025).
5. Абдуллаева Г.А., Аллаярова С.Н. Тарбия жараёни сифатини квалиметрик мониторинг қилиш: муаммо ва ечимлар // Современное образование (Узбекистан). 2021. №12 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tarbiya-zharayoni-sifatini-kvalimetrik-monitoring-ilish-muammo-va-echimlar> (дата обращения: 14.05.2025).
6. Абдуллаева Г. (2024). Квалиметрический подход к воспитательным работам в общеобразовательных школах. Предпринимательства и педагогика, 2(3), 97–104. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/entrepreneurship-pedagogy/article/view/33189>
7. Sodikov U. J., Xamrokulova Sh. E. Davolash pedagogikasining kelib chiqish tarixi // Academic research in educational sciences. 2024. №NUU Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davolash-pedagogikasining-kelib-chiqish-tarixi> (дата обращения: 14.05.2025).